



SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR PRINSIPLARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O`RNI.

Sadaf Tilavova To`lqin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Telefon: +998(94)4167900

Toshkent, O`zbekiston

sadaftilavova2021@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10208458>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma`qullandi: 24- November 2023 yil

Nashr qilindi: 27-November 2023 yil

KEY WORDS

davlat, tadbirkorlik faoliyati, prinsiplar, shartnoma, shartnomaviy munosabatlar, biznes qonunchiligi, tadbirkorlik munosabati subyektlari, shartnoma erkinligi, qonuniylik, halol raqobat subyektlar tengligi.

ABSTRACT

Maqolada tadbirkorlik faoliyati prinsiplari, shu jumladan shartnomaviy munosabatlar prinsiplari, ularning mohiyati, shartnomaviy munosabatlarning va ularning asosiy tamoyillari, biznes qonunchiligida va tadbirkorlar faoliyatida prinsiplarning tutgan o`rni, xususiy huquq sohasida prinsiplarning mohiyati hamda amaliyotga tatbiq etish choralari milliy va xorijiy tajriba va qonunchilik normalari asosida yoritilgan. Tamoyillar nafaqat aynan bitta fan yoki huquq sohalariga tegishli bo`lgan zaruriy belgilardir balki, butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini belgilashda asosiy ko`rsatmalar vazifasini bajaradi. Tamoyillardan o`z o`rnida va to`laqonli foydalanish huquqiy normalarning samaradorligini yanada oshiradi. Tadbirkorlik faoliyatida qo`llaniladigan asosiy mezonlar hisoblanmish shartnomaviy-munosabatlar tamoyillari bugungi kunda tadbirkorlik munosabatlarini huquqiy tartibga solishda asosiy qoidalar bo`lib xizmat qiladi. Qonunchilik tizimimizda fuqarolik, biznes huquqiy munosabatlarni tartibga solishda asosiy tamoyillarning roli tobora ortib borayapti. Lekin, ko`p hollarda tamoyillarga asosiy prinsip sifatida emas, qo`shimcha-subsidiar yuridik vosita sifatida ham qarash hollari mavjud bo`lganligi sababli uni har tomonlama o`rganish va ilmiy tadqiq etishni taqazo etadi.

Tadbirkorlik faoliyatida shartnomaviy munosabatlar tamoyillari asosiy o`rin tutadi. Ushbu tamoyillardan ayniqsa shartnoma erkinligi tamoyili har qanday tadbirkorlik subyekti uchun muhim hisoblanib, shartnoma tuzish erkinligi, erkin kontragentni tanlash va shartnomani o`zgartirish va bekor qilish kabi ushbu tamoyilning muhim elementlarini birlashtiradi. Biz ushbu shartnoma tuzish erkinligi tamoyilini shartnomani tartibga solishdagi

muhim ahamiyat kasb etadigan vosita sifatida ta'riflashimiz mumkin. shartnomaviy munosabatlar tamoyillariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

1. Shartnomalar erkinligi tamoyili. Ushbu tamoyil tadbirkorlik faoliyatida shartnomaviy-huquqiy munosabatlarda asosiy qoida sifatida qaraladi desak mubolag'a bo'lmaydi va Fuqarolik kodeksining 354-moddasida ham belgilab qo'yilgan. Ma'lumki, fuqarolik huquqi subyektlari o'z huquq va erkinliklarini turli shartnomalar bilan ham amalga oshiradilar. Bunday shartnomaviy munosabatlarni asosan yuridik shaxslarning ham faoliyatida asosiy o'rinni egallab, jumladan, haq evaziga xizmat ko'rsatish, oldi sotdi, tovar yetkazib berish va boshqa shu kabi shartnomaviy munosabatlarda qo'llaniladi. Ushbu tamoyilning asosiy ma'nosi shundan iboratki, subyektlar o'z xoshish istaklariga muvofiq shartnoma tuzadilar. Ularni shartnoma tuzishga majburlash qonunan man etiladi. Agar fuqarolik kodeksida, boshqa qonunlarda boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa va subyektning o'zi tomonidan olingan majburiyatda shartnoma tuzish burchi nazarda tutilmagan bo'lsa shartnoma tuzish taraflar uchun erkindir.

2. Xususiy ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qoyilmasligi tamoyili. Tadbirkorlik faolyati ishtirokchilari o'zining xususiy masalalarini o'z erki va xohish irodasi bilan mustaqil hal etadi. Qonunga muvofiq bir subyektning boshqa bir subyektning ishlariga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Misol uchun, kimnidir o'zboshimchalik bilan shartnoma tuzishga, uning qoidalarini o'zgartirishga yoki uni bekorga qilishga majbur qilish, o'zboshimchalik bilan kimnidir biror bir faoliyat bilan shug'illanishga majbur qilish va boshqa shu kabi holatlar. Agar o'zboshimchalik bilan kimnidir faoliyatiga yoki shaxsiy ishiga aralashish aniqlangan taqdirda albatta qonunda belgilangan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 123-moddasiga binoan, aldash, zo'rlik ishlatish yoki qo'rqitish orqali tuzilgan bitim o'z o'zidan haqiqiy emas deb topiladi.

3. Buzilgan huquqlarni tiklanishi tamoyili. Ushbu tamoyil orqali qonun tomonidan fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqlari buzilgan taqdirda u butunlay bekor bo'lib ketmaydi, aksincha vakolatli davlat organi yoki sud orqali qayta tiklanishini anglatadi. Masalan, asossiz va g'ayriqonuniy ravishda mulkdordan olingan mul-mulkni asl holida qaytarib berilishi. Ushbu tamoyilning ahamiyatli jihati shundaki, subyektlarning huquqlari buzilgan taqdirda uning barcha oqibatlarini to'liq bartaraf etish imkonini beradi.

4. Huquqlarni sud orqali himoya qilinishini ta'minlash tamoyili. Mamlakatimizda buzilgan huquqlarni sud orqali himoya qilish yo'li qonunan yo'lga qo'yilgan. Fuqarolarning buzilgan huquqlarini himoya qilishda sud hokimiyati asosiy yetakchi rol o'ynaydi. Asosi qonun konstitutsiyaning 44-moddasida ham ushbu tamoyil belgilangan bo'lib, har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida aynan tadbirkorlik faoliyatida shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari sifatida shartnomalar tuzish erkinligi, taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnoma intizomiga rioya qilish va taraflarning mulkiy javobgarligi kabi prinsiplar belgilangan.

Fuqarolik kodeksi 353-moddasiga binoan shartnoma bu- ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchalarini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilish to'g'risidagi kelishuvdir. Shartnomalar ikki va yoki ko'p taraflama bo'lishi mumkin. "Fuqarolar

va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquq va erkinliklarini, burchlarini shartnoma orqali o'z xohishlariga ko'ra amalga oshirishda va belgilashda va har qanday qonunga zid bo'lmagan shartnoma shartlarini belgilashda erkindirlar". (O'R FK 1-modda). Shartnoma fuqarolar, yuridik shaxslar jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi fuqarolik muomalasining huquqiy asosi hisoblanadi. Fuqarolar yoki yuridik shaxslar qonunga binoan o'zaro shartnoma tuzib munsabatga kirishganlarida ular o'rtasida o'z o'zidan shartnomaviy munosabatlar paydo bo'ladi. Ular har qanday turdagi shartnomaviy munosabatga kirishish yoki kirishmaslik huquqiga ega. Fuqarolik kodeksining 8-moddasiga ko'ra taraflar qonunda nazarda tutilmagan va agar qonunga zid bo'lmasa amma qonunda nazarda tutilmagan har qanday shartnomani tuzib shartnomaviy munosabatga kirishishlari mumkin. Bunda ular o'zlari uchun shartnoma tuzadigan hamkor sheriklarini, kontragentni, qanday turdagi shartnoma tuzish kerakligini, shartnoma tuzish yoki tuzmaslikni mustaqil hal etadilar. Masalan, tadbirkorlik subyektlari oldi-sotdi, ijara yoki pudrat shartnomalarini tuzish yoki tuzmaslikni o'z manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshiradilar va ular kim bilan shartnoma tuzishni, ya'ni fuqaro bilan, boshqa yuridik shaxs bilanmi, davlat korxonasi yoki aksiyadorlik jamiyati bilanmi, vositachi bilanmi yoki bevosita ishlab chiqaruvchi bilanmi qisqacha qilib aytganda kim bilan shartnomaviy munosabatga kirishishni o'zlari o'z xohish istaklaridan kelib chiqib hal etadilar.

Bugungi kunda shartnoma bilan bo'g'liq munosabatlarda shartnomaning ilmiy va nazariy jihatlariga e'tibor qaratilmoqda. Chunki yuridik faktlarga qaraganda taraflarning xohish-irodasi shartnomada o'z ifodasini topadi. Amaliyotda shu narsa aniq bo'lmoqdaki, shartnomaviy munosabatlar tamoyillari hisoblanmish shartnoma tuzish erkinligi, taraflarning manfaatdorligi va shartnoma intizomining mustahkamligi, ma'muriy-buyruqbozlikdan ko'ra ko'proq mulkiy javobgarlikning keng qo'llanilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnoma borasidagi qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, o'z faoliyatlarida shartnomaga asosiy e'tibor qaratishlariga sabab bo'lmoqda. Aslini olganda shartnoma tadbirkorlik faoliyatida shartnomaning ahamiyati juda kengdir. Shartnoma tuzish qonun-qoidalarga rioya qilish shartnoma intizomini kuchaytiradi, taraflarning mas'uliyatini oshiribgina qolmay ularning faoliyatini rag'batlantiradi, biznesda debitorlik va kreditorlik faoliyatini yaxshilab, ishtirokchilar faoliyati barqarorligini ta'minlaydi.

Shartnomalarni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari shartnoma erkinligi, taraflarning tengligi, taraflarning xususiy ishlariga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi, taraflarning shartnomadan kelib chiqadigan huquqlarini hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirilishi, buzilgan huquqlarni sud orqali himoya qilinishi va tiklanishi kabi tamoyillarga tayanadi¹. Ushbu shartnomalarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqi tamoyillarining qo'llanilishiga ayrim istisnolar bo'lsada ular bitta majmua bo'lib shartnomaviy munosabatlarni samarali tartibga solishga qodir bo'lgan yaxlit bir tuzilmani yaratadi.

Shartnomalar erkinligi tamoyili namoyon bo'lishining yana bir o'ziga xos holati shundaki shartnoma shartlarini o'z xohishlariga ko'ra tanlashlari. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, taraflar shartnoma predmeti va kontragentni tanlagandan keyin ham shartnomadagi shartlarni belgilashda o'z xohishlariga qarab harakat qiladilar. Taraflar o'zlari uchun shartnomaga kiritish zarur deb topgan har qanday shartni shartnomaga kiritishni talab qilishlari mumkin. Bunda asosiy istisno holat shundaki, muayyan shartnomalarning

¹ Choriyev M.SH., Ro'ziyev R.J., Topildiyev V.R., Muhammadiyev A.A., Nuridullayev A.A., Shartnoma huquqi. Darslik.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti, 2022, 12-b.

xususiyati, maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, qonun hujjatlarida belgilanishi kerak bo'lgan asosiy shartlar belgilanishi mumkin va taraflar bu shartlarni xohish istaklaridan qa'iy nazar shatnomada kiritishlari zarur bo'ladi. Umuman olganda shatnomalar erkinligi tamoyili subyetklarning erkinligi va tashabbuskorligi kafolati bo'lishi lozim.

Xalqaro xususiy huquqda ham shatnomalar erkinligi tamoyili har doim tan olinib kelinadi. Jumladan, Xalqaro savdo shatnomalar tamoyillarining 1.1 moddasiga asosan shatnoma tuzishga kirishishda va uning mazmunini belgilashda taraflar erkindirlar, yoki 1.2-moddasini oladigan bo'lsak ushbu moddada shatnoma yozma ravishda tuzilishi va tasdiqlanishi haqida birorta qoida kiritilmagan. Shatnomaning mavjudligi har qanday yo'l bilan, guvohlik ko'rsatuvlari bilan ham tasdiqlanishi mumkin².

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, shatnoma erkinligi tamoyili tadbirkorlik faoliyatida shatnomaviy munosabatlarda eng muhim rol oynaydigan rahbariy qoida bo'lib, shatnomani tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bugungi liberallashgan zamonda mamlakatimizda deyarli shatnomalar erkinligi tamoyili amlada keng qo'llaniladi va ushbu tamoyildan istisno holatlar esa faqat qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yo'l qoo'yiladi. Bunda albatta iste'molchi va davlat manfaatlarini ko'zlangan holda shatnomalar tuzish burchi kategoriyasi ishlatiladi. Asosiy qoida bo'lmish shatnoma erkinligi tadbirkorlar o'rtasida vujudga keladigan har qanday shatnomaviy munosabatlar masalan, oldi-sotdi shatnomasi, tovar yetkazib berish, xizmatlar bajarish, pudrat shatnomasi va hokazo kabi fuqarolik munosabatlarning barchasiga taalluqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. H. Rahmonqulov. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. I jild.-Toshkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997.26-27 b.
2. A. Muhammadiyev. Fuqarolik huquqiy tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. Dissertatsiya. Toshkent-2012. 40 b.
3. Раҳманқулов Х.А. Возникновение и развитие советского гражданского законодательства Узбекской ССР// Правоведение. 1975. - №9. – Б.66-72; И.Б. Закиров. Становление и развитие советского гражданского права в БНСП и ХНСП. – Ташкент, Фан, 1988. – Б.60-64.
4. Закиров И.Б Становление и развитие советского гражданского право в БНСП и ХНСП. – Ташкент, Фан, 1998. 35 с.
5. Братусь С.Н. Предмет и метод Советского гражданского право.-М., 1963. 143 с.
6. Братусь С.Н. Предмет и система гражданского право// Правоведение. 1960.- №1. 48 с.
7. Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi (umumiy qism). Darslik.- Toshkent, TDYUI, 2005. 227 b

² Принципы международных коммерческих договоров / Пер. с. англ. А.С. Комарова.- М., Международный центр финансово-экономического развития, 1996. 8 с.